

MAKTABGACHA TA'LIMDA TIZIMIDA INNAVOTSION
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
SAMARODORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

*Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti
maktabgachacha ta'lim yo'nalishi
talabasi Mamatraimova Oygul*

Annotatsiya: *Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimida innavotsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, mazmuni va samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan. Maqolada "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bolalar faoliyatini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning o'rni va afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek interfaol metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, multimediya vositalari va o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innavotsion yondashuvlardan samarali foydalanish foydalanish bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qilishini isbotlaydi,*

Kalit so'zlar; *maktabgacha ta'lim, innavotsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar.*

WAYS TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF USING
INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL
EDUCATION

Annotation: *This article highlights the importance, content, and ways to increase the effectiveness of using innovative pedagogical technologies in the preschool education system. The article analyzes the role and advantages of*

introducing modern technologies in organizing children's activities based on the Ilk Qadam curriculum. It also discusses the impact of interactive methods, information and communication technologies, multimedia tools, and game technologies on the educational process. The research results prove that the effective use of innovative approaches in preschool educational institutions contributes to the development of children's independent thinking, creativity, and social activity.

Keywords: *preschool education, innovative technologies, pedagogical process, interactive methods, information and communication technologies.*

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье раскрываются значение, содержание и способы повышения эффективности применения инновационных педагогических технологий в системе дошкольного образования. В статье проанализированы роль и преимущества внедрения современных технологий при организации деятельности детей на основе учебной программы «Ilk Qadam». Также показано влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, мультимедийных средств и игровых технологий на образовательный процесс. Результаты исследования доказывают, что эффективное использование инновационных подходов в дошкольных образовательных учреждениях способствует развитию у детей самостоятельного мышления, творческих способностей и социальной активности.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, инновационные технологии, педагогический процесс, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии.*

Kirish

Maktabgacha ta'lim tizimida innavotsion texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga

aylangan. Innovatsion yondashuv orqali bolalarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni oshirish imkonini yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologilarni joriy etish ularning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va faoliyat turlariga mos ravishda amalga oshiriladi.

Innovatsion texnologiyalar deganda – ta'lim jarayonini takomillashtirishga, bolalarda mustaqil fikrlash, izlanuvchanlik, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi yangi usul va vositalar tushuniladi. Bunday texnologiyalar jumlasiga axborot-kommunikatsion texnologiyalar AKT, interfaol o'yinlar, multimedia darslari, STEAM yondashuvi, loyihaviy metod kabilar kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Ilk qadam” o'quv dasturi asosida innovatsion yondashuvlar keng qo'llanmoqda. Masalan, multimedia vositalari yordamida hikoya, ertak yoki tabiat hodisalarini bolalarga interfaol tarzda ko'rsatish, o'yin asosidagi mashg'ulotlarda esa aqliy hujum, rolli o'yin, fikrlash charxi kabi metodlardan foydalanish bolalarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Tarbiyachi-pedagogning vazifasi faqatgina tayyor bilimni berish emas, balki, bolaning o'z fikrini erkin ifoda etishga, muammoli vaziyatlarni mustaqil yechim topishiga sharoit yaratishdir. Shu bois innovatsion texnologiyalarni tog'ri tanlash va samarali qo'llash pedagogdan ijodkorlik, kasbiy kompetensiya va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish ko'nikmasini talab etadi. Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda o'tkaziladigan onlayn uchrashuvlar, vediodarslar, masofaviy o'yinlar bolalarning ta'limiga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Bu esa zamonaviy maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarning dolzarbligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion texnologilarni qo'llash ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Har

bir pedagog o'z faoliyatida bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, zamonaviy metod vositalardan foydalansa, ta'lim jarayoni yanada qiziqarli va mazmunli kichadi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar, interfaol o'yinlar, multimedia vositalari va loyiha asosidagi yondashuvlar bolalarda tafakkur, diqqat, kuzatuvchanlik hamda ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar yordamida bolalar o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi, bu esa bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Pedagog tomonidan yangi innavotsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida ularning kasbiy mahorati, tajribasi va texnik vositalardan foydalanish ko'nikmalari muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bola shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi yo'l boshlovchi sifatida faoliyat yuritadi.

Raqamli va sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarni maktabgacha ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bolalar bilan individual ishlash imkonini kengaytiradi. Masalan o'quv dasturlariga va ta'limiy dasturlariga mos elektron o'yinlar, interaktiv darsliklar va ta'limiy dasturlar bolalarning qiziqishini oshirib, ularni mustaqil o'rganishga yo'naltiradi. Natijada innavotsion texnologiyalarni to'g'ri qo'llash maktabgacha ta'limda sifatli ta'limni ta'minlaydi, bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi hamda ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida innavotsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi MTTlarning 75 foizida axborot-kommunikatsion texnologiyalar joriy etilgan.

Xulosa:

Maktabgachga ta'lim tizimida innavotsion texnologiyalardan foydalanish bu bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan

eng samarali yo'llardan biridir. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qiladi. Shuningdek, tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirib, bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, innavotsion texnologiyalarni maktabgacha ta'lim jarayonida keng joriy etish - kelajak avlod tarbiyasiga qilingan eng kata sarmoyadir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 'Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida' gi PQ-4312-son qarori Toshkent, 2019
2. 'Ilk qadam' o'quv dasturi. - TOSHKENT Maktabgacha ta'lim agentligi.
3. Karimova, R 'Maktabgacha ta'limda innavotsion texnologiyalarni qo'llash usullari' - TOSHKENT ;Fan va ta'lim 2022
4. Saidova, N 'Maktabgacha ta'limda AKTning o'rne' Pedagogika jurnali N 4, 2023
5. Maktabgacha ta'lim agentligi rasmiy sayti; <https://mdo.uz>
6. UNESCO. Early Childhood Education and Innovation Report. Paris 2021